

## TANISHING: KINDER-PRESS

Milliy Matbuot markazi yangi nashr taqdimotini o'tkazuvchi, kunning dolzarb mavzulari, muammo va yangiliklarni yetkazuvchi maskan. Bu yerda «Kinder-press» nomli jurnal chiqayotganligi e'lon qilindi.

Demak, Bolalar matbuoti Kinder - bola degani. Press esa - matbuot. atalgan ekan. Boshlovchining nomli bu jurnal o'z uzidan ma'lum, bolalarga

Hamma hayron. Shu payt bolalar salomidan so'ng zalda chaqaloq kulgusi yangradi.

kirishdi. Barcha yig'ilgan mehmonlar aravachasida «Kinder» ismli qo'g'irchoq-bolakayni olib

va yozuvchilari-yu gazeta-jurnal - noshir va muassislar, bolalar shoir muharrirlari Kinder

-pressning umri uzun bo'lishini tilash ham bolalarbop bezatilibdi. Uning di. Bu jurnal chindan

Sa'dullayev, Ijodiy guruh rahbari ijodkorlari Alisher Abdulboriy Ziyodov,

nashr bo'lim boshlig'i Yuliana Kim bola tili va diliga yo'l

topa biladigan izlanuvchan ijodkorlar ekan.

Nishona sonning o'ziyoq jurnalning kelajagi yorqinligidan

dalolatdir. Bolalar quvnoq rasmlar ko'rib, hazil-

huzul gaplar eshitib, kulguga moyil bo'lib o'ssa,

ertaga qovog'i soliq insonlar bo'lishmaydi. Buning

ustiga jurnalda e'lon qilingan asarlarni o'zlari uchun

kitobcha holiga keltirib, chizilgan suratlardan buyumlar

yasab olishsa, iqtidori ijodkorligi shakllanadi. Har

bir sahifaning o'z qahramoni bor. Chiroyli bezatilgan

sahifalardagi reklama roliklari, salomatlikka oid

maslahatlar, kompyuter saboqlari... hamma-


hammasi bolalarbop. Oq yo'l senga, «Kinder-press»! Sendan bolajonlar

rus tilida o'qishni ham mukammallashtirib borishadi. Bu esa dunyoga chiqishning, odam va olamni

tanishning yana bir imkoniyatidir.

Ma'suda VOHIDOVA.

Yangi jurnal



MUNAVVIR

Menejer - ish boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassisdir.

Kompaniya, firma, korxonalar, bank va moliya muassasalarining ijroiya ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchilari ham menejerlar deb yuritiladi.

Yuqori pog'ona menejerlari. Ular firma istiqbolini belgilash bilan shug'ullanadilar, firma rejasini ishlab chiqib, uni amalga oshiradilar.

O'rta pog'ona menejerlari esa ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati, yangi tovarlarni o'zlashtirish, texnologiyani qo'llash, mehnatni tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Quyi pog'ona menejerlari seh, buo'lim, brigada doirasida ishni tashkil etadilar. Kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlar bajarilishini boshqaradilar.

Iqtisodiy aloqalar murakkablashgani sari menejer xizmatiga talab oshadi.

Natijada:

**Rahbar** - boshqaruvchi.

**Rahbar** - diplomat.

**Rahbar** - murabbiy, tarbiyachi.

**Rahbar** - inson.

**Rahbar** - tadbirkor.

**Rahbar** - innovator sifatida maydonga chiqadi.

Toshkent moliya instituti katta o'qituvchisi

Saida SAGDIYEVA

va 2-bosqich talabasi Mirodil MIRHALILOV.

## ILK MAKTUB

Assalomu alaykum, aziz «Tong yulduzi» tahririyat xodimlari!

Hormay-tolmay biz o'quvchilar uchun xizmat qilib

yuribsizmi? Men ushbu gazetani sevib o'qiyman.

Hech bir soni mening e'tiborimdan chetda

qolmaydi. Chunki men tahsil olayotgan

litseyning aksariyat o'quvchilari «Tong

yulduzi»ga obuna bo'lishgan. Menga

ko'proq «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir»

rukni yoqadi,

shuningdek,

tengdoshlarim ijodini ham

kuzatib boraman.

Bizga asablari va vaqtlarini ayamay, saboq

berayotgan ustozlarim Mahbubaxon Po'latova, Latifjon

Nozimov, Hakimjon Yusupov, Qobiljon G'aybullayev,

Diloromxon Aliyeva va boshqalarga o'z

minnatdorchiligimni siz orqali yetkazmoqchiman. Men

ana shunday litseyda tahsil olayotganimdan

baxtiyorman.

Fursatdan foydalanib, jiyancham Kamola

Mamadaliyevani to'rtinchi bahor ayyomi bilan

qutlayman. Ota-onasi baxtiga sog'-omon bo'lib yursin.

Barno ABDULLAYEVA,

Namangan shahri, Aniq va tabiiy fanlar litseyining 8-sinf o'quvchisi.

## "BIRLASHGAN O'ZAR"

Haqiqatan ham dono xalqimiz aytganidek, birlashib ko'p yutuqlarga erishsa bo'larkan. Biz o'quvchilarga gazeta va jurnallarga obuna bo'lishni

birinchi sinfdan majburlashardi. Ularning narxini so'rasangiz, sal qimmatroq. Bu yildan boshlab biz 4-5 kishi bir bo'lib, o'z nashrlarimizga

obuna bo'ldik. Shunda ham moddiy tomondan, ham ma'naviy tomondan yaxshi bo'larkan. Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasidagi maqola, she'r va

boshqotirmalar bizlarni o'zaro fikr almashishga, bahslashishga boshladi. Men ham tengdoshlarimdan ibrat olgan holda o'zim ertak, hikoya va

she'rlar mashq qila boshladim. Hozir o'z namunalarimni adabiyot fani muallimimiz ko'rib beryaptilar. Puxta bo'lganida albatta «Tong yulduzi»ga ham yuboraman.

Qunduz MAMASOLIYEVA,

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi

42-maktabning 5-sinf o'quvchisi.



## JONKUYAR USTOZIMIZ BOR

Biz 8-«A» sinfida o'qiyamiz. Sinfidoshlarimiz bir-birlari bilan

juda inoq. Hatto butun maktabimiz o'quvchilarining bizga havasi

keladi. Sinf rahbarimiz Dilorom Abdurahmonova bizlarga doim:

«Birovlarga yaxshilik qiling, bir-birlaringiz bilan ahil-inoq bo'ling»,

- deb tayinlaydilar. Sinf rahbarimiz boshchiligida maktabda

o'tkaziladigan har bir tadbirlarda faol qatnashamiz. Dilorom opa

bilim maskanimizda o'tkaziladigan musobaqalarda: «Agar I yoki

II o'rinni ololmasangiz, xafa qilaman», - deya «urishib» ham

qo'yadilar. Shuningdek, Dilorom opa yaxshigina dizayner ham.

Sinf xonamiz ta'mirdan chiqmagan, jihozlari ham eski edi. Dilorom

opa esa sinf xonamizni qaytadan ta'mirdan chiqarishga, yaxshi

jihozlar bilan jihozlanishiga bosh-qosh bo'ldilar. Hammaning



nazaridan chetda qolgan sinf xonamiz maktabimiz bo'yicha eng

namunali sinf xonasi bo'ldi. Ammo bizni keyin boshqa sinf xonasiga

ko'chirishdi. Dilorom opa bundan zarracha ham xafa bo'lmadilar.

Bu xonani ham chiroyli qilib ta'mirdan chiqarib, qaytadan

jihozladilar. Dilorom opa turli tarixiy joylarga sayohat ham

uyushtirib turadilar. Ular boshchiligida tarixiy obidalarini, muzeylarni

tomosha qildik, ajdodlarimiz yotgan qabristonlarni ziyorat qildik.

Yaqinda ustozimiz betob bo'lib qoldilar. Bilasizmi, ular

maktabga kelmay yurganlarida birdan sinfimizdagi o'quvchilarning

o'zlashtirishi pastga tushib ketdi. Maktabdan ko'nglimiz soviy

boshladi. Umuman darslarga ham kirgimiz kelmasdi. Butun

maktab ularsiz huvillab qolganidek edi, nazarimizda. Ustozimiz

betob bo'lganlarida ularning qadriga yeta boshladik. Davolanib

chiqqach, ularning yonlaridan bir zum ham ketmadik.

Maktubimizdan maqsadimiz shuki, ustozingizni qadriga yeting.

Chunki ular bizni bilimli va tarbiyali bo'lishimizni istaydilar. Biz

kelajakda ustozimizga mustahkam sog'liq, ishlarida omad tilaymiz.

Hakimjon PO'LATOV, Jamshid JO'RAXONOV,

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahridagi 3-o'rta umumta'lim maktabining o'quvchilari.

# «SEHRLI YOG'DU» KINO-FOTO FESTIVALI

## SO'Z ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA:



Avval xabar qilganimizdek, Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy kengashi binosida bo'lib o'tgan «Kelajak

taraqqiyoti bolalar qo'lida» shiori ostidagi «Sehrlil yog'du» Respublika kino-foto festivalida men ham ishtirok etdim.

To'g'risi, bunday festivalda birinchi bor qatnashishim edi. Rango-rang suratlarni tomosha qilib, ishtirokchilar bilan suhbatga shu darajada kirishib ketganimdan, festivalning yakuniy bosqichi - g'oliblarni aniqlash va taqdirlash marosimi boshlanib qolganini ham payqamay qolibman. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati binosining majlislar zali o'quvchilar, ularning rahbarlari hamda mehmonlar bilan to'libdi. G'ala-g'ovur bo'lib turgan zal davraga hay'at a'zolaridan biri «Gulxan» jurnali mas'ul kotibi Mirvosil aka Odilov chiqib kelishlari bilan suv quygandek tinchib qoldi. Mirvosil aka festival ishtirokchilari bilan dildan suhbatlashdilar, ishtirokchilarning yutuq va kamchiliklari borasida uzoq gapirdilar. Ularni qiziqtirgan savollarga javob berib, o'zlari ham bir necha savollariga oydinlik kiritib oldilar. Fursatdan foydalanib, to'garak rahbarlaridan ayrimlarini biz ham suhbatga chorladik.

Buxoro viloyati, Kogon shahridagi O'quvchilar ijodiyot markazi rahbari, Xalq ta'limi a'lochisi Sabohat Hotamova:

-1997- yilda ish boshlagan O'quvchilar ijodiyot markazimiz qoshida muntazam faoliyat ko'rsatayotgan 8 ta to'garakka 360 nafar o'g'il-qiz a'zo. Ulardan 45 nafari kino-foto to'garagiga qatnashadi. Ijodkor o'quvchilarimiz mana bir necha yildirki, respublika miqyosidagi ko'rik-tanovlar, festivallarda muvaffaqiyatli



«Kim kuchli?»

Otabek XOLLIYEV, Olot tumanidagi 12-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallab kelishyapti. Bugungi festivalga ham bir necha o'quvchilarimizni

olib kelganimiz. Kogon shahridagi 2-sonli maktabning 8-sinf o'quvchisi Mahliyo Sharipova kino yo'nalishi bo'yicha ishtirok etgan bo'lsa, 9-maktabning 9-sinfida tahsil oladigan yana bir o'quvchimiz Nurali Qobilov foto yo'nalishi bo'yicha ishtirok etyapti.

Men o'quvchilarimga, qolaversa, anjumanga umid bilan kelgan barcha ishtirokchilarga omad tilayman...



«Bobolar» Nurali QOBILOV, Kogon shahri.



«Jo'jani kuzda sanaymiz». Begzod SHOIMOV.

-Men rahbarlik qilayotgan Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani, Baxt shahridagi 3-sonli O'quvchilar Ijodiyot markazida 22 ta to'garak bo'lib, ular 5 yo'nalish bo'yicha ish olib boradi, deya suhbatimizga qo'shildi Xalq maorifi a'lochisi Mavludaxon opa Nikuradze. - «Nafis», «Sehrlil iplar», «Istiqbol g'unchalari», «Zardo'zlik», «Lazzat», «Yosh chevar», «Yumshoq o'yinchoqlar», «Ingliz tili» kabi o'nlab to'garak mashg'ulotlarini Xabibullo Xo'jayev, Nabi Azizov, Zulumor Xoliqova, Mavluda Kenjayeva, Nasiba Saidova kabi 9 nafar oliy hamda 11 nafar o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglar olib boryaptilar. Ular mashg'ulot o'tibgina qolmay, ko'plab uchrashuvlar, ko'rik-tanlov va seminar-treyninglar ham uyushtirishadi. Shuningdek, mahallalar qoshida «Yosh hamshira», «Chevar qiz», «Gulshan» kabi kashtachilik to'garaklarini ham boshqarib, onaxonlar duosini olishyapti. Erishgan yutuqlarimiz ham maqtansa arzigudek. O'quvchilarimiz respublika miqyosida o'tkazilgan «Yosh maqomchilar» va «Yosh hunarmandlar» ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli 2-o'rinni olib qaytishdi. «Varraklar bayrami»da ishtirok etgan bolajonlarimiz ham bo'sh kelishmadi: «Faxriy yorliq»larni qo'lga kiritishdi.

Bugungi anjumanda ikki nafar umidli shogirdlarimiz - 7 yildan buyon foto to'garagiga qatnab kelayotgan 21-maktabning 9-sinf o'quvchisi Begzod Xudoyberdiyev hamda shu maktabning 6-sinf o'quvchisi Begzod Shoimov qatnashishyapti.

Fursatdan foydalanib, farzandlarimizga o'z iste'dodlarini namoyish qilishlari va kelgusida hayotdan o'z o'rinlarini topishlari uchun sharoit yaratib berayotgan bunday anjumanlar tashkilotchilariga o'z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman...

Respublika o'quvchilar saroyining «Shodiyona» guruhi a'zolari ijrosidagi kuy va qo'shiqlar bilan yanada fayzli o'tgan anjuman yakunlanib, g'oliblar aniqlanadigan hayajonli daqiqalar ham yetib keldi.

Kino yo'nalishi bo'yicha GRAN-PRI sovrini qashqadaryolik Jahongir Ergashevning «Tog' guli» nomli filmi uchun berildi. Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi 12 - maktabning 2 - sinf o'quvchisi Sherzod Saparboyev esa erkin mavzuda olgan suratlari uchun foto yo'nalishi bo'yicha GRAN-PRI sovrinini qo'lga kiritdi.

Shuningdek, birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallagan o'quvchilar ham Xalq ta'limi vazirligining «Faxriy yorliqlari» hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Hayotning hatto biz kattalar ham ilg'ay olmaydigan qirralarini payqab, uni tasvirga tushirgan bolajonlar ijodi bilan tanishish barobarida ularning tuyg'ulari o'ta sodda, samimiy, tasavvurlari keng va rang-barang bo'lishiga yana bir bor amin bo'ldim.

Feruza JALILOVA.



«Olimga sayohat».

-Chinoz tumanidagi Texnik ijodiyot markazimiz 1974- yilda tashkil qilingan bo'lib, hozirda 400 dan ziyod o'quvchilar aviomodelchilik, konstruktorlik, o'ymakorlik, ekologiya va boshqa texnik to'garaklarda turli kasb mahoratlarini o'rganib kelishyapti, deydi to'garak rahbari Abdusalol Rahimov. - Markaz qoshidagi foto to'garagining 3 nafar yosh

fotohavaskorlari - 1-maktabning 10-sinf o'quvchisi Odil Eshmatov, 2-maktabning 9-sinf o'quvchilari Ilyos Kotibov va Komil Iskandarov anjumanda Toshkent viloyati nomidan ishtirok etishyapti. 4 yildan buyon foto to'garagiga qatnab kelayotgan Odil Eshmatovning «Mustaqil O'zbekiston» yo'nalishi bo'yicha olgan suratlari 1-o'ringa loyiq topildi.

«Dugonalar».



Ilyos KOTIBOV, 2-maktabning 9-sinf o'quvchisi.



Mana bu suratlarni andijonlik fotohavaskorlar tasvirga tushirishibdi. Ularni 1975-yildan buyon fotohavaskorlar to'garagini boshqarib kelayotgan O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi, hozirda 70 yoshni qoralab qolgan kekxa ustoz - Odiljon aka Dehqonov poytaxtga olib kelibdilar.

-Bunday anjumanlarga uzoq yillardan buyon qatnashib kelamiz, deya so'z boshladi Odiljon aka. O'quvchilarimiz bir necha bor I va II o'rinlarni egallashgan. 2004-yilda Gran-pri sohibi bo'lgan Durdon Qoraboyeva ismli qizimizning olgan suratlari bu yil I o'ringa loyiq topildi.



«Bir rivoyat so'zlayin...»

Surojiddin QORABOYEV, Andijon shahridagi 30-maktabning 6-sinf o'quvchisi.



«Yurtim timsoli».

**Ustozning kirish so'zi:**

Assalomu alaykum, azizlar! Bugun men rahbarlik qilayotgan 5-«A» sinf o'quvchilari birinchi muchal to'yini o'tkazmoqdalar.

Yurtboshimiz istiqloq mohiyatini tushuntirib, shunday deganlar.

-Biz uchun mustaqillik—eng avvalo o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo'tabar shu vatanda, har bir xonadonda tinchlik-osoyshtalik barqarorligini saqlashdir. Aziz vatanimizda adolat, insof, din-u diyonat, mehr-oqibatni qaror toptirishdir.

12 yoshga to'lgan bolalar, «Muchal to'yi»ngiz muborak! Bunday to'yni ham bizga Istiqloq berdi.

Qarsaklar ostida «Bahor vals» ohanglari bilan 5-«A» sinf o'quvchilari bir o'g'il, bir qizdan saflanib zalga kirib kela boshlaydilar. (Zalning kichik xonasida Bahoroy va sovuq izg'irin timsolidagi Yalmog'iz kampir qoladi. Parda ortida Jamshid shoh taxtini bezatib, o'ziga oro berish bilan ovora.) Zalga kirib kelgan o'quvchilar zalni bir aylanib o'tib, tomoshabinlar qarshisida to'xtaydilar.

Shu vaqtda zalni jaranglatib O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasi chalinadi, o'quvchilar jo'r bo'lib madhiyani kuylaydilar.

(So'ng, 2 boshlovchi o'rtaga chiqadi.)

**Boshlovchi (o'g'il):** Assalom, ey aziz Vatanim,

Sen o'zimning jonim va tanim.

Assalom, ey qalbi jahonim,

Otajonim va onajonim!

**Boshlovchi (qiz):**

Assalom, ey g'amxo'r mua'llim,

Mehr bilan berguvchi ta'lim.

(Parda ochiladi va afsonaviy Jamshid ko'rinadi. Jamshid

jihazlangan taxt ustida o'zining chiroyli, nurlu xush tarovati bilan odamlarni lol qoldiradi. Shunda qizlar eshik (chap) tomonga o'tadilar, o'g'il bolalar sahna oldida qoladilar.)

**1-o'g'il bola:** Voy bo'o'o'y! Jamshid tuni bilan uxlamay, o'ziga shohona taxt va toj yasabdi. Qimmatbaho toshlar bilan jilo beribdi.

**2-o'g'il bola:** Jamshid bizga endi podshoh bo'ladi.

**3-o'g'il bola:** Bu kun bizga yangi kun, yangi olamdird!

**4-o'g'il bola:** Ana quyosh ham chiqdi.

**5-o'g'il bola:** Oftobning zarrin nurlari toj-u taxtni yoritdi.

**6-o'g'il bola:** Bu kun bizga bayram, yayraymiz.

**Jamshid shoh taxtdan turib:**

Quchog'ingda tug'ilib,

Yayradim, o'sdim.

U bilan to'kisdir,

Yo'q kam-u ko'stim.

Mustaqil Vatanning,

Men o'g'li erkin.

Sevaman dunyoning,

Lazzatin ko'rkin.

(Hamma xursandchilik bilan qiyqiradi.)

**Bolalar:**

Yashasin yasharish fasli, yashasin muchal to'yimiz

(Yalmog'iz kirib keladi.)

**Yalmog'iz:**

Ha-ha-ha, o'ynarmishlar,

Hi-hi-hi, quvnarmishlar.

Hali erta, hali sovuq kunlarim bor,

Hammayoqni muzlatuvchi tunlarim bor.

Huuvv... shamol kel.

Bo'ron tur, qor yog', hu-u-v-v...

Iya, nega unday bo'lmayapti-ya?!

Hammani sovuqqa qotirib qo'ymoqchi edim,

Ha, sovuqqa!

Ha-a, o'zim topdim, bu yerda hamma jamuljam, hamma do'st-birodar, hamma sergak ekan! Ha-a!

Shuning uchun mening yovuzligim o'z kuchini yo'qotgan ekan.

Voy, voy dod!

**O'g'il bolalar:**

Yo'qol, yosumon! Ket bu yerdan.

Bu yerda sendek yovuz kuchlarga o'rin yo'q! Ket, ket, yo'qol!

(«Voy dod»lab yalmog'iz kampir chiqib ketadi.)

**Jamshid shoh:**

Mahobatli, saxovatli yurtim uzra,

Munavvar tong otdiku, chehralar gulgun.

Zalvorli yuk-la mardonavor yo'l boshlar

O'zbekimning karvoni betinim bu kun!

**Boshlovchi o'g'il:**

Tong bilan yangraydi madhiyam

Porlaydi yuksakda quyoshim.

Dil ko'rkam, el ko'rkam, yurt ko'rkam

Karvoning boshlayver yurtboshim!

**Musiq:** «Andijon polkasi».

(O'g'il bolalar raqsga tushadilar.)

**Boshlovchi(qiz):** Ana Bahoroyim siz omon!

ustozlarga kelgan mehmonlarga gul tarqatadi.)

Omonliq, hey, omonliq,

Yetdik Bahorga.

Hech ko'rmaylik yomonliq,

Qut ber diyorga.

Yurtga tinchlik so'rayman,

Olamga chiroy.

Shu ayyomni qutlay deb,

Undirdim bug'doy.

Muchal to'yi bahona,

G'animat diydor.

Shu urfimiz shohona,

Oqibatga yor.

Amonga ming shukrkim,

Yetdik Navro'zga.

Maysa o'sibdi durkun,

Suray men ko'zga.

So'ng «Doira raqsi» boshlanib, tugagach, bir qiz

beshikchasi boshida «Alla» aytadi.

Alla bolam, allayo,

Shirin bolam, allayo.

Beshigingning qoshiga,

Qosh kaptarlar qo'ndirdim.

Sening uchun davlatni,

Yo'q joylardan yo'ndirdim.

Alla bolam, allayo,

Shirin bolam, allayo.

Alla ohangida muchal to'yini

o'tkazayotgan bolalar go'yo bo'ylari o'sib,

katta bo'layotgandek raqsga tushib turadilar.

**Boshlovchi (o'g'il):**

Dehqon bobo, siz ham keling,

Gulyor aytib, quvnang bunda.

Mehnat qilib tolmangiz hech,

Rohat ko'ring har bir kunda.

Dehqonbobo ketmon ko'tarib kampiri

bilan keladi, bolalar ularga qarashgan bo'lib,

gul, daraxt ko'chatlari ekishadi, choy tutib,

terlarini artib qo'yishadi.

**Boshlovchi (qiz):** 5-«V» sinf tabrigi Navro'z o'lanlaridan «Doira dum-duma».

**Boshlovchi (o'g'il):** 12 nafar o'quvchi davraga chiqib muchallar haqida bashorat qilishadi.

**Boshlovchi:** Bu kun yangi yil! Bizlar bir muchalni ko'rdik. Daraxtlarimiz biz bilan ulg'ayib, uylarga ustun bo'lishadi. Bol-sharbat tutib, bizlarni noz- ne'matlari bilan siylashadi.

**Jamshid shoh:** Bu yangi yilimizning yangi kuni Navro'z it muchaliga to'g'ri keladi. It yilida tug'ilganlar: «Aqlli, dono, ziyrak, mard va o'ta vafodor, sadoqatli odamlar bo'ladi», - deb bashorat qilganlar donishmand bobolarimiz.

Ilohim mana shu bashorat qilingan eng yaxshi insoniy fazilatlar egasi bo'laylik.

So'ng, ikki-uch nafar ona tabrik so'z aytadi. So'ngra, onalardan biri chiqib, bolalarning bo'yi barobar oq surpni ularning bo'yniga solib qo'yadi. Bolalarning boshiga do'ppi kiygizadilar. Zalda o'tirgan mehmonlarga shirinliklar ulashib, isiriq tutatishadi.

**Boshlovchi (o'g'il):** Bizning birinchi-muchalimiz bo'lsa, ustozimizning beshinchi-muchallari deya besh raqami bitilgan ko'krak nishonini ustozining ko'ksiga taqib qo'yadi. So'ng, birga «Xalq bo'lim» qo'shig'i kuylanadi.

So'z maktab direktori, mahalla qo'mitasi faollari hamda direktor o'rinbosarlariga va o'qituvchilarga beriladi.

**Boshlovchi (o'g'il):**

O'zbekim yuraging kuylarga to'lsin,

Seni qo'llayversin nurlar ma'vosi.

Nasibang but bo'lsin xonadoningni,

Aslo tark etmasin qo'shiq navosi!

*Ssenariy muallifi: Dilorom NOSIROVA, 247-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi, 5-«A» sinf rahbari.*

**Bahor tantanalari****MUCHAL TO'YI**

(Ustoz bilan 2 ta jarchi zalning ikki chekkasidan bir-birlariga qarab yurib kela boshlaydilar.)

**Har ikkala jarchi:** Odamlar-u odamlar, bog'da bitgan bodomlar, «eshitmadim» demanglar!

Eshitganlar jilmanglar!

**1-jarchi:** Bugun 247-maktab 5-«A» sinf o'quvchilarining muchal to'yi bo'ladi.

**2-jarchi:** Muchal to'yiga Dilorom opa Nosirova boshchilik qiladilar, he-he-hey!

**1-jarchi:** Uzoq-yaqindan qadri mehmonlar tashrif buyuradilar, he-he-hey!

**2-jarchi:** Sayl tomosha boshlanur, he-he-hey!

**Har ikkala jarchi:** Ko'rganlar darmonda, ko'rmaganlar armonda, he-he-hey! Kelib qolinglar, he-he-hey!

kelmoqdalar. (Hamma qizlar eshik tomon qarab hayqiriq, qiyqiriqlar bilan Bahoroyga peshvoz chiqadilar. Oq shohi ko'ylakda, oq gullarga bezanib Bahoroy kirib keladi.)

**Bahoroy:**

Salom mening aziz dugonalarim,

Azizim, lo'barim, chevarim qizlar.

Ey toza qalbimning oshnolari,

Kuylarim ilhomi, sevarim qizlar!

x x x

Otalar erkasi aziz yigitlar,

Vatanning sevari mard-u maydonlar.

Siz bilan she'rimning rubobi yangilar.

Siz bilan go'zaldir davru davronlar.

**Boshlovchi (qiz):**

Bahoroyim keldilar,

Chopib-chopib, chopqillab.

Lolalar sochvordilar,

Qir adirga qulo'chilar.

**Muchal qo'shig'i (o'z bola):**

Bahoroyga ergashib,

Men ham bu yuriga keldim.

Sizlarni xursand etay.

Deb rosa shoshib yeldim.

Men o'zbekning urfiman,

Faxriman, g'ururiman.

Tangri bergan lutfiman,

Ke'zardagi nuriman.

Muchaldir mening ismim.

Siz uchun zo'r mukofot.

Qolsin deymen Sizlardan,

Mo'tabar, muqaddas ot.

**O'yin (qizlar):** «Xorazmcha».

**Boshlovchi (qiz):** Omonliq, hey, omonliq.

(3 nafar qiz chiqadi, biri she'r aytadi, 2 nafari



**ZANJIRBAND SHER**

Bir kuni yo'llab Navoiy, noma birlan sher surat,  
Sherki zanjirband yotar, rangi bo'lib yer surat.  
Qoldi hayrat ichra ko'rib rasmni ul shoh Boyqaro,  
Chunki anglar edi, podshoh nima ko'ngil muddao.  
Tezda chorlab oldi dargohingga do'stin hukmdor,  
Do'stsiz bo'lgandi podshohim, ketib kuch, bemador.  
Aylabon taklif vazirlik, ko'nglin olmoq bo'ldi, shoh,  
Lek Husayniy taklifin rad qildi, bo'lmay xayrixoh.  
Bo'lsa paydo yovlashuv orada o'g'illar bilan,  
Ko'tarar yovlikni shoir so'zlashib shirinsuxan.  
Tinch umrni hush ko'rar hazrat Navoiy har zamon,  
Istagi zanjir uzib, sher yayrasin o'rmon-makon.

*Bahodir MADMURODOV,  
Shayxontohur tumanidagi 34-maktabning  
II-«B» sinf o'quvchisi.*

**OTAJONIM**

Ishlaysiz erta-yu kech,  
Oromni demasdan hech.  
Kulib turasiz doim,  
Parvona sizga oyim.

Ishdan qaytganingizda,  
Hazil aytganingizda.  
Quvnashamiz, kulamiz,  
Parvonangiz bo'lamiz.

Shuhratimiz - shonimiz,  
Osmon - otajonimiz.  
Ko'z tegmasin ilohim,  
Sog'-omon bo'ling doim.

*Dilnoza RASHIDOVA,  
Hamza tumanidagi  
153-maktabning 6-«A» sinf  
o'quvchisi.*

**OHANGLAR QANOTIDA**

Osmonda varraklar uchadi bir-bir,  
Mayin shabbodalar ohanglarida.  
Qirmiz qizg'aldoqlar bag'rida bir sir,  
Nafis chayqaladi so'lim tonglarda.  
Qushlar butoqlarda kuylaydi yayrab,  
O'riklar g'o'raga burkanar yakkash.  
Dilga orom berar bulbullar sayrab,  
Tinglang qaldirg'ochlar suhbatini dilkash.  
Bahorning havosi shunchalar toza,  
Nurlarga aylanib qolgim keladi.  
Shunday gul Vatanda yashamoq soza,  
Baxt iqbol men tamon shoshib yeladi.

*Munira MAJIDOVA,  
Sobir Rahimov tumanidagi 326-mak-  
tabning 6-«B» sinf o'quvchisi.*

**BEKINMACHOQ**

Alijonning qo'zichog'i,  
Yunglari oppoq, mayin.  
Tinim bilmas, yuguradi,  
O'saverar kun sayin.  
Alijon va qo'zichoq,  
O'ynashar bekinmachoq.  
Bu do'stlikdan hamisha,  
Alijonning ko'ngli chog'.

*O'raloy KALONOVA,  
Surxondaryo viloyati,  
Denov tumani.*

**MEHRIBONSIZ OYIJON**

Mening jon-u jahonim,  
Mehribonim o'zingiz.  
Boshlarimni silaysiz,  
To'tiyodir so'zingiz.  
Alla aytib boshimda,  
Tunlari bedor o'tgan.  
Hayallasam bir zumda,  
Ostonada tik kutgan.  
Tarbiyangiz dilimda,  
Omonligim ahdimsiz.  
Zavol bilmang hamisha,  
Onajonim - baxtsiz.

**CHUMOLILAR**

Erta-yu kech ishlaysiz,  
Tinim bilmas polvonlar.  
Siz uchun pisand emas,  
Katta-kichik davonlar.  
Bir-biringiz quvvatlab,  
Yashaysiz ahil-inoq.  
Shundanmi hayotingiz,  
To'rt fasl mudom quvnoq.

*Nazokat JO'RAYEVA,  
Gulandom G'AFUROVA,  
Shayxontohur tumanidagi  
84-maktabning 5-sinf o'quvchilari.*

**«So'lim, Zomin chorlaydi sizni» tanloviga****LOLAQIZG'ALDOQ**

Seni xursand etgani,  
Bahorda unib chiqdim.  
Qir-u adir ko'rgani,  
Tuproqni yorib chiqdim.  
Ezib ichsang suvimni,  
Qizamiqqa qarshiman.  
O'zim gulman chiroyli,  
Bilsang asli pariman.

**KAPALAK**

Ikkita qanoting bor,  
Kapalagim, kapalak.  
Gulni juda sevasan,  
Izingdan quvdim halak.



*Ruxsora AVEZOVA,  
poytaxtimizdagi  
326-maktabning  
4-«A» sinf o'quvchisi.*

**ONAM**

Omad tilab onam menga,  
Shoir bo'lgin bolam, - deydi.  
Sen tanlagan she'riyatni,  
Bilsang nurli olam, - deydi.

Yana aytar shoir bo'lsang,  
«Sartovul»ni tanir dunyo.  
Ota-onang ko'zlariga,  
Kulib boqar butun dunyo.

*Tursunpo'lat EGAMOV,  
Samarqand viloyati,  
Nurobod tumani,  
«Sartovul» qishlog'i.*

**MAKTABNI SOG'INGANDA**

Inson umri misli oqar suv,  
Qiyos ekan, hatto bir onga.  
Maktab - orzu, kechagina men,  
Intilardim maktab tomonga.  
Kichik jussa, quchoqdek sumka,  
Va yurakda ming xil hayajon.  
Daftar to'la "besh"lar terilgan,  
Peshonamdan o'par onajon.  
Eh, u damlarning zavqi o'zgacha,  
Partadosh qizning sochi bir ermak.  
Xayolimda kelajak - orzu,  
Yashnab borar misoli ertak.  
Maktabim, sendan yiroqman endi,  
Endi u damlar qaytmas onlarim.  
Ko'nglimda jo'shqin muhabbat bilan,  
Maktabni qadrlang, ukajonlarim.

*Rustamjon TUROBOV,  
Zangiota tumani.*

**ONA TABIAT**

Asraylik tabiatni,  
U ham bizning onamiz.  
Gar tiniq suv, havo yo'q,  
Zulmat borliq, xonamiz.  
Daraxtlarni, gullarni,  
Shoxin sindirish yomon.  
Ekan nihollarimiz,  
Gurkirab o'ssin omon,  
Zavqqa to'lar dilimiz,  
Maysalar shiviridan.  
Tabiatni asrasak,  
Voqif etar siridan.

*Xabiba MURODOVA,  
Zangiota tumanidagi 2-maktabning  
9-«B» sinf o'quvchisi.*

**BOLALIK**


Osmonlarda uchaman,  
Bulutlarni quchaman,  
Mustaqil el bolasi,  
Yurtim gul-u lolasi.  
Iqbolimiz charog'on,  
Hayotimiz farovon.  
O'qiyimiz zavqqa to'lib,  
Yurtim ertasi bo'lib.  
Ulg'ayamiz albatta,  
Orzularimiz katta.  
Tinchlik barqaror bo'lsin,  
Dunyo kulguga to'lsin.

*Botirjon YOROV,  
Toshkent viloyati, Parkent  
tumanidagi 42-maktab  
o'quvchisi.*

**UMR**

Umr - bu insonga bir bor berilar,  
Dunyoning kurashlar maydoni asli.  
Hayot sinoati bari yozilgan,  
Taqdirning bayonli kitobi misli.  
Umr o'tkinchidir bir zumda o'tar,  
Oqar suv misoli qaytmasdan ketar.  
Kimdandir yaxshi nom abadiy qolar,  
Kimlardir taqdirga tan berib o'tar.  
Umringizning qasri kamtarlik bo'lsin,  
Qalbingiz sahiylik zavqiga to'lsin.  
Yaxshiligingiz-la nomingiz qolsin,  
Faxrlanib yursin o'g'il-qizingiz.

*Mohira SHOYIMARDONOVA,  
Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanidagi  
47-maktabning 10-«A» sinf o'quvchisi.*



Umida ABDUAZIMOVA

*Bu kitob Abdumajidniki. Abdumajid hali uch yoshga ham to'lmagan, yozishni bilmaydi-ku, qanday qilib kitob yozadi, deb so'rarsiz? Barakalla! Sezgirligingizga, aqlingizga qoyil!*

*Abdumajid ham Siz kabi juda sezgir, juda bilimdon bola. Ehtimol, tez aylanayotgan yer sharimiz, katta manzillar sari otlangan odamlarimiz, kundan-kun yangilanib, yangi o'yin va qurilmalar bilan aqlni peshlayotgan asrimiz shunday bolalarni tarbiyalayotgandir? Xullas, bu kitob - Abdumajidniki. Uning aytganlarini Sizga aytdik. Kitob nomini esa shuning uchun ham «YOZILMAGAN KITOB» deb qo'ydik.*

## TAVBAGA O'XSHAGAN SO'Z

- Men Abdumajidman. Buvim: «Abjumajidni urishmanglar. Abdumajid ne'mati va sharafi bepoyonning quli degani. Qolaversa Abdumajid, katta o'g'lim, Oллоh o'zi berib, o'zi olgan - Xojiakbar tug'ilgan paytda tug'ilgan», - deyдилar. Uymizda Xojiakbar nomi aytilsa, hamma xomush tortib, buvimni ovutishga tushadi. Buvim esa meni silab, siypalab Xojiakbar amakimga aytgan ashulani mening ismimga moslab ayta boshlaydilar:

|                       |                       |
|-----------------------|-----------------------|
| Abdumajid toy-toy,    | Toyni minib kattakon, |
| Buvalari boy-boy.     | Ot qiladi toy-toy.    |
| Har bozorga borganda, | Otni minib hammani,   |
| Olib kelar toy-toy.   | Mot qiladi toy-toy... |

-Tavba qildim, buvi, tavba... Kecha lo'li ko'chamizdan ot-arava minib o'tib ketdi. O'shanda shishalarni hushtakka almashtirib, menda ham ot bo'lsaydi, degandim.

Buvim kulib yubordilar.

-Tavba qildim, deysanmi? Tavba-ya?!.. Sen hali uch yashar ham bo'lmading-u, qanday gunoh qilibsanki, tavba qilasan!?

-O'zingiz bir xillarda tavba qildim, deysiz-ku. Tavba yaxshi so'zmi?

-Bir xillarda degin?

Kula -kula buvimning ko'zlari yoshlanib ketadi.

-Ko'zimda yosh, ko'ngil g'ash, hijron ziyoni tanda, Qaritar meni yakkash ko'ngil isyoni, tavba.

Avval gunoh qilganlar, keyin Oллоh deganlar, Vasvasadan topmay ta'm, ochilgin choh deganlar.

Parvozda qanot sinsa, qo'shiq avjida tinsa, Chamandami, cho'ldami, daryo mavjida tinsa.

Hayot poyoni tavba, gunoh boyoni tavba, Eh, chindan ham ozurda, jonning ziyoni tavba...

Xullas, tavba qiladigan, bir ish qilib endi bu yomon ishni boshqa qilmayman deb tazarru qiladigan bo'lmagin, bolajon. Nimaiki qilsang, yaxshilikka bo'lsin.

Buvimdan men esa yana yangi so'z eshitib oldim. Bu - tazarru. Tazarru nima, deb so'rasammikan?.. Yo'q, undan boshqa so'raydigan gaplarim ko'p. Qolaversa, tazarru - tavba so'zidan keyin aytiladi. Demak, tavbaga o'xshagan so'z bo'lsa kerak tazarru.

## YOZILMAGAN KITOB



## BUVIMNING HAMMA GAPI TO'G'RI

Oyim narigi uydan ukamni olib chiqdilar.

- Ukangning oti nima?- dedilar menga.

-Abdubosit.

-Oyijon, Abdumajid endi ukasining otini to'g'ri aytayapti.

-Yo'q, Abdumo'min. Buvim Abdumo'min deganlar.

Buvim esa ukamni qo'llariga olib, rizq ato etuvchining, ruh bag'ishlovchining quli bo'lsang o'rgilay, dedilar-da, menga qarab gapirdilar: - Sen shox, to'polonchi bolasan. Ukang mo'mintoy bo'lsin, degandim-da. Qarasa m,

shunday ham mo'min-ma'qulgina ekan. Uning otini ham, sening otingni ham Xoji buving qo'yib berganlar.

-Xoji buvim zo'rlar-da. Katta bo'lsam Xoji buvi bo'laman.

-Mayli, Xoji buving kabi saksonga kirgin. Ammo sen o'g'il bolasan. O'g'il bolalar Xoji bobo bo'lishadi.

Buvim yig'layotgan ukamni ovutdilar:

Oblo huv-ya,  
Ariqlarda suv-ya.  
Abdubositni yuzini,  
Sovuq suvga yuv-ya...

-Yo'q-yo'q, issiq suvga deng, buvi.

Oblo huv-ya,  
Ariqlarda suv-ya.  
Abdubositni yuzini,  
Issiq suvga yuv-ya.

-Yo'q-yo'q, buvi, issiq suvdan yuzi kuyadi. Muzdek suvga yuv qiling.

Yerda-chi, sho'xlik qilib,  
Ariqni toshirasani.

Muzdek suvni ichib oladi.

-Ichib olsa tomog'i og'riydi. Sen ham kechasi yo'talib chiqding. Oyisi, Abdumajidga dori ichirib qo'ying...

-Yo'q-yo'q, dori ichmayman. Dori achchiq.

Oyimning oyog'iga yopishib olib, yig'lay boshlayman.

-Dori ichmasang, ukol qilaman. Qani shpris?..

-Xo'p-xo'p, - deyman shoshib, - ukol qilmang, dori ichaman. Oh - umma bilan.

Oyim dorini og'zimga soladilar.

-Oh - ummasi tamom bo'libdi.

-Nega tamom bo'ladi, - deb eshikdan kirib keladilar amakim.

-Nima olib keldim Abdumajidga?

-Sprayd.

-Yana nima?

-Banan.

-Yana nima?

-Morojniy.

-Topolmading, shtapad olib keldim.

-Nega shtapad deysan, Abduhamid? To'g'ri gapir bolaga.

-Asalim, amaking senga shokolad olib kelibdi, - deyдилar buvim.



-Shokolad bering, shokolad, - deb sakray boshlayman-u, birdan buvimning gapi esimga tushadi.

-Mana - asalimga shokola-a-d.

Amakim menga ko'zini qisadi: - Buvingning hamma gapi to'g'ri. Qani asalingdan ber-chi?

Men amakimni achom-achom qilaman. Yelkalariga minib olaman-u, boshlariga chiqib ketaman. Amakim esa qulog'imni qo'yib yubor deb meni chirpirak qilib yerga tushirib qo'yadilar.

## QATTIQQO'L KIM?

Loyqalatding shaloblab,  
Tog'ning tiniq bulog'in.

Buvim bilan gaplashib yotib uxlab qolibman. Buvimning o'zlari ham yonimda yotgan ekanlar. Uyg'onib derazaga qarasa m, yomg'ir yog'ayapti. Yana yaqinroq borib qarasa m, yomg'ir velosipedimni minib olyapti!

-Buvi, turing, turing, velosipedimni yomg'ir minib olyapti.

Buvim darrov tepa uydan buvamni chaqirdilar.

-Abdumajidni velosipedini yomg'ir minib olayotganmish.

Yomg'irdan uni olib qo'ying, - dedilar-da, yana negadir ko'zlari yoshlandi.

Bulutning bag'rin tilib,  
Qo'yvor, deb shoshirasani.

Buvimga aytay, boplab,  
Cho'zib qo'ysin qulog'ing...

- Bu gapni Xojiakbar amaking sendekligida yomg'irga aytgandi. Men uni she'r qilib qo'ygandim.

Amakingnig buvisi, mening onam qattiqqo'l edilar. Hozir ham Xoji buvingni oldida tartib saqlab o'tirasani-ku, sen ham. Men esa qattiqqo'l bo'lolmadim...

Shu kuni, shu paytning o'zida Xoji buvimning oldida bo'lib qolgim keldi. Negaligini o'zingiz ham bilgandirsiz? Ha-da, ularning qo'llarini ushlab ko'rish uchun-da...

(Davomi bor.)



## TUT AĞAJY HAKYND A HAKYKAT

Ahmet Mämmedow

- Kölegesi ýok asagynda  
Gün gyzanda ýatar ýaly,  
Ne owadan çybygy bar,  
At edinip çapar ýaly.

- Diýdim welin, kakam sonda  
Bu jadyly aňaç hakda.  
Gürriü berip, onuò waspyn  
Duruzmady çende-çakda.

- Nurtaganyò ak köýnegi  
Ak ýüpekden dälmi näme?  
Gyrmyzynyò ba° ýaglygy  
Sary ýüpek allanäme!

Bilýäömi sen, o ýüpeklen,  
Nädip ýüpek bolýanyňy?  
Nämäò ony zähmet çekip,  
Ýasap-sarap bilýänini?

Bir kiçijik gurçuk bardyr,  
Ýüpek gurçuk onuò ady.  
Özi gurçuk bolsa-da oò,  
Ýüpek etmek söýýän zady.

Ilkibasda "tohumjykdyr",  
Göräýmäge ýokdur jany.  
Ýöne welin, adamlaryò  
So gurçukdyr sylaýany!

Sol tohumyò bir gysymy,  
Müò gysymlyk baýlyk bolar.  
Sol baýlykdan adamlara,  
Köýnek bolar, ýaglyk bolar.

Ana, oglum, so gurçuga  
Iýmitdir ýapragy tuduò.  
Iýmeýär ol ýapragyny  
Ne deregiò, ne-de söwdüò...

Bilýärin men mukamlary,  
Tamdyrany gepleýänin.  
Ýag ýaly owaz çykanda  
Dykgat berip diòleýänin.

Tamdyra-da hut sol tutdan  
Ýasalandyr bilsed, oglum!  
Ýadawlygy kowar mukam,  
Aryp isden gelseò, oglum!

Uzyn çyrlak ak derekden  
Dutar ýasap bolýan dälidir.  
Ýasalsa-da, özge zatdan  
Tüýs gowy hen çalyan dälidir.

Onsoòam, oò tudanasy  
Müò kesele derman bolar.  
Seýle bolsa, ne sebäpden,  
Ony gowy görmän bolar?!

Do'stlik chamanida

Mähriban ýas dostlar!

Ynha, Özbekistan Respublikasynyò çagalarynyò we ýetginjekleriniò  
«Tong yulduzi» diýlip atlandyrylýan gazetini Siziò üçin öz sahypalaryndan  
birini türkmen dilinde çykarylýandygyny mälim edýäris.

Indi Siz öz ene diliòizde gyzykly makalalary, gosgulary, öwüt-  
nesihatlary, degismeleri we tapmaçalary okap bilersiòiz. Özbekistanda  
okuw türkmen dilinde alnyp barylýan mekdep okuwçylary üçin bu waka  
örän guwançly we peýdalydyr.

Ýas dostlar! Siziò özüòiz hem su gazete gyzykly makalalary,  
gosgularyòzy we çeken suratlaryòzy iberip bilersiòiz. Elbetde Siz bu gazet  
bilen öòden tanys bolmagyòyz mümkin. Eger tanys bolmasaòyz, su gazete  
abuna boluò. Ana sonda gazet bilen zygider tanysyp öz ýazanlaryòzy  
da okap bilersiòiz.

Ýene bir zady Size aýtmakçy! Geliò dostlar su gazet sahypamyza  
bilelikde at dakalyò. Bize hat ýazyò. Biziò salgymyz: 700129. Daskent  
säheri. Nowaýy köçesi, 30. «Tong yulduzi» gazetini.

Geliò, çagalalar «Tong yulduzy»na ak ýol arzuw edeliò!

Kamiljan Hallyýew, «O'zbekiston» nesirýatynyò  
türkmen dili boýunça redaktory

## ADY ÖZI BILEN GARRASYN!

(eserden bölek)

Täze dünýä inen çaga at goýmak üçin çaklanja toý edilýär, bisme bisirilýär,  
süýji seçilýär. Haýsydyr bir at saýlanyp alnandan soðra, biz çagany we onuò  
ýakynlaryny täze at bilen gutlaýarys: Ady özi bilen garrasyn! Gutly at bolsun!

Görüò, nähili gowy arzuw:

Dogrudan-da, adamyò ady

Günde-günasa çalsyryp

Gündogar halklarynyò

gelyän dana aýtgy bar.

ata-enesiniò öðünde

ene-atanyò öz

borjy bar: 1) çaga gowy

we 2) öýli-i°ikli etmek.

borjy öz çagasyna

sonuò üçinem ý s

ýeòil-ýelpaý däl-de, düýpli

kesmegi» gerek...

Goý, çagalary olaryò ady, adyny hem özlere bezesin!

Goý, çagalaryò ady özi bilen garrasyn!

Ady özi bilen garrasyn!

- onuò ömürlük ýoldasy.

durar ýaly, ol egin-esik däl.

arasynda gadyndan

Sol aýtga görä, ogul-gyz

elmydam borçly, emma

çagasynyò öðünde üç sany

at dakmak, 2) ony okatmak

Diýmek, ene-atanyò ilkinji

gowy at dakmakdyr. Hut

çagalara at dakylanda, olaryò

oýlany°magy, «ýedi ölçäp, bir



Soltansa Atanyýazow

## BAHAR HAKDA IKI GOŇG


I Gurbanberdi Welbegow

Gyzyl gumuò goýnunda,  
Ýanbas galaò ýerinde,  
Bagymyzyò içinde,  
Baharyò ysy geldi.

Çyrynyyp ýylaklary,  
Yranyp sazaklary,  
Oýanyň gök otlary,  
Ilime bahar geldi.

Hatar-hatar tirke°ip,  
Goýun-guzy mälesip,  
Düýeleri botlasyp,  
Çölüme bahar geldi.

Çöle çyksaò hezillik,  
Bolmaz başga gözellig,  
Her günü bir gazallyk,  
Dünýäme bahar geldi.



\* Asyrguly - Dörtgöl etrap «Gyzylgum»  
sereket hojalygynyò baslygy.

II

Asyrguly\* agamyz,  
Sylaýarys hemmämiz,  
Sowly bolsun çarwaòyz,  
Çarwanyò ýyly geldi.

Edipsiòiz sertnama,  
Deri, yüòden borçnama,  
Jogap berdiò sorana,  
«Ýylymyz gaty geldi».

Çopanlara dostsuòyz,  
Hydyr ata ýarsyòyz,  
Mydam gumda ýoluòyz,  
Ýoluòda bahar geldi.

Säher tipli obaòyz,  
Tükenmeýär gazyòyz,  
Bu gün düsdi ýolumyz,  
Obaòda myhman geldi.

**MENDA BIR TAKLIF BOR**

Assalomu alaykum, tahririyat xodimlari! Men 1-son Bolalar kutubxonasining «Kitob-bilim manbai» klubining a'zosiman. Biz tengdoshlarimiz bilan birga sevimli gazetamizning har bir sonini o'qib boramiz. Menga gazetadagi «Bir shingil tog'dan, bir shingil bog'dan» rukni juda yoqib qoldi. Sahifalarda giyohvandlik yo'liga kirib qolgan insonlarning taqdiri va uning oqibatlarini haqida qiziqarli maqolalar o'qishni istardim.

**Behruz TOSHBADALOV, Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 35-maktabning 4 - «B» sinf o'quvchisi.**

**QIZIQARLI MAQOLALAR BERILSA...**

Men ham 1-son bolalar kutubxonasining «Bolalik» qiziquvchilar klubi a'zosiman. Menga gazeta sahifalarida hamma maqola-yu hikoyalar, she'rlar juda yoqadi. Men tenggi o'quvchilarning yozayotgan maqola va she'rlarni ko'rib, ularga havasim keladi. Kelajakda bundan-da, qiziqarli maqolalar o'qishni istardim.

**Sardor KARIMOV, Angor tumanidagi 1-maktabning 3- «D» sinf o'quvchisi.**



«Tong yulduzi»m - ong yulduzim

**«TONG YULDUZI»M**

«Tong yulduzi»m - ong yulduzim, Ijodimda sen kunduzim. Undayapsan istiqbolga, Albat yetgum baxt, iqbolga.

Gul ochilar sahar chog'i, Yashnab ketar bulbul bog'i. Sen ham bizning bog'imizsan, Saodatli tog'imizsan.

Sahifangda she'rlarim bor, Yozaversam takror-takror. Ilhom o'zi omad tilar, «Tong yulduzi»m boshim silar.

**Shalola ESHBOYEVA, Kattaqo'rg'on shahridagi Nodirabegim nomli 6-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi.**

**«BUGUNNING BOLASI»GA FIKRIM**

Men ham «Tong yulduzi»ning har bir sonini o'qib boraman. Men «Bugunning bolasi» rukniga o'z fikrlarimni bildirmoqchidim. Menimcha, bugunning bolasi yoshiga mos bo'lgan kitob, jurnal va gazetalar o'qishi, bilimni boyitib, fikr doirasini kengaytirib borishi kerak. Chunki u o'qigan kitoblar kelajakda asqotib qolishi mumkin.

**Sarvara KARIMOVA, Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 1-maktabning 5-sinf o'quvchisi.**

**SAN'ATKORLAR HAQIDA KO'PROQ MAQOLA BO'LSA...**

Bundan oldingi sonlarda mening maqolamni bosilganini ko'rib, quvonib ketdim. Demak, biz yozayotgan har bir maktab tahririyat xodimlari nazaridan chetda qolmas ekan. Buning uchun sizlardan minnatdorman. Men gazeta sahifalarida xalqimiz ardog'ida bo'lgan Afzal Rafiqov, Dilafro'z Jabborova, Noila Toshkenboyeva, Sanjar Sa'dullayev kabi bir qator san'atkorlarning ijodi va hayot yo'li haqida o'qimoqchidim.

**Islom ALIMOV, Angor tumanidagi 1-maktabning 3-sinf o'quvchisi.**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda o'ta xasis va toshbag'ir bir shoh bo'lgan ekan. U hech kimga, hatto o'z saroyi xizmatchilariga ham ishonmas ekan. Shundanmi, xalqdan undiriladigan soliqlarni ham o'zi yig'arkan. Ularning miqdori, turlari esa kundan-kunga ortib boraverarkan. Yig'ilgan soliq esa davlat xazinasiga emas, shohning cho'ntagiga tushaverarkan.

Soliq to'lash u yoqda tursin, bolalariga yedirishga ham hech vaqosi bo'lmagan odamlarni xonavayron qilar, ularning ko'z yoshlari, yalinib-yolvorishlariga parvo ham qilmas ekan. Shuning uchun ham uni hamma yomon ko'rarkan.

Bir kuni yurtga yov bostirib kiribdi. Shoh xalqini yovga qarshi kurashga chorlabdi. Lekin hech kim yurt himoyasiga otlanmabdi. Nokas shohni, uning boyliklarini himoya qilgandan ko'ra, o'zga yurtlarga bosh olib ketishni afzal bilishibdi. Hamma ko'ch-ko'ronini ko'tarib, qochishning payiga tushib qolibdi. Shunda yolg'iz yashaydigan keksa bir otaxon, meni ham olib ketinglar, deya o'tgan-ketganlarga iltijo qilibdi. Ammo hech kim unga e'tibor ham bermabdi. Shunda alp qomatli bir yigit kelib, otaxonni yelkasiga opichib olibdi va yo'lga ravona bo'libdi. Buni qarangi, haligi chol oddiy emas, sehrigar chol ekan. Unga yordam

**JASUR HAQIDA BILISHNI ISTARDIM...**

Men sizlarga bir iltimos bilan murojaat qilmoqchi edim. O'zining Vatan haqidagi qator qo'shiqlari bilan tengdoshlari qalbidan joy olishga ulgurgan Jasur Mirsagatov bilan suhbat uyushtirsangiz, boshim ko'kka yetardi. Menimcha, Jasur haqida batafsil bilishni ko'plab tengdoshlarim istashadi.

**Gulnoza AHMEDOVA, Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi Xayrobod shaharchasi.**

**MEN VATANDAN KETMAYMAN**

bergani uchun yigitga minnatdorchilik bildirib, uni ko'rinmas odamga aylantirib qo'yibdi. Vatandan ketishni, o'z yurtini begonalar qo'liga topshirishni istamagan Yigit bir o'zi yovga qarshi kurashib, ularni bitta qo'ymay qirib tashlabdi. O'zi esa ko'rinmas bo'lgani uchun ham omon qolibdi. Bu xushxabarni eshitgan shahar ahli sekin-asta o'z yurtlariga qayta boshlabdilar va ko'rinmas yigitni shoh etib tayinlabdilar. Yangi shoh soliq undirish uchun shahar-maqishloq yurmas, odamlarning o'zlari zimmalaridagi majburiyatlarini bajarib, davlat xazinasiga kerakli miqdordagi soliqlarni to'lab ketadigan bo'lishibdi. Shu-shu bu yurtda tinchlik, xotirjamlik hukm surarkan.

**G'ayrat NAXANOV, Samarqand viloyati, Nurobod tumanidagi 53 - umumta'lim maktabining 6 - sinf o'quvchisi.**

O'z yulduzi - o'z boshingiz  
**TONG yulduzi**

O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**  
**Umida**

**ABDUAZIMOVA**

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Botir UBAYDULLAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA,

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
022-raqam bilan  
2003-yil 11-dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi.  
Gazeta

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi -50103

Buyurtma N: J 2311

Dizayner va sahifalovchi:

**Fazliddin SHAYADGAROV.**

Naybatchi:

**Ma'mura MADRAHIMOVA.**

Rassom:

**Nodira MIRZAYEVA.**

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45